

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

**60411400 – Inson resurslarini boshqarish bakalavriat ta’lim yo‘nalishining
malaka talablari**

Buxoro

ISHLAB CHIQLGAN VA KIRITILGAN:

- Buxoro davlat universiteti;

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy va o'rta maxsus, professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 202_ yil «___» _____ dagi _____ - sonli yig'ilishida ma'qullangan. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 202_ yil «___» _____ dagi _____ - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.

Mazkur Malaka talabi 410 000 – Biznes va boshqaruv ta'lim sohasi Davlat ta'lim standarti, Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori, O'zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga tegishlidir.

1. 60411400 – Inson resurklarini boshqarish bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi

60411400 – Inson resurklarini boshqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va kechki ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi.

1.1.1. 60411400 – Inson resurklarini boshqarish ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi 60411400 – Inson resurklarini boshqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Oliy ta'lim muassasasi mazkur bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlash vakolatiga ega bo'lganda malaka talabi asosida o'quv reja va fan dasturlarini amalga oshirish huquqiga ega hisoblanadi.

1.1.3. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60411400 – Inson resurklarini boshqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 60411400 – Inson resurklarini boshqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

60411400 – Inson resurklarini boshqarish – “Biznes va menejment” sohasidagi yo'nalish bo'lib, u turli mulk shakllariga tegishli tarmoq, sohalarning xo'jalik yurituvchi sub'ektlari, moliya, kredit va sug'urta muassasalari, davlat hamda mahalliy hokimiyat organlari, akademik va tarmoq, ilmiy tadqiqot tashkilotlari, maktabgacha, umumta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarning iqtisodiy, ishlab chiqarish – iqtisodiy va inson resurslari bilan ishlash xizmatlarini o'z ichiga oladi, tarmoqlar va korxonalarini rivojlantirishga, mamlakat, xudud va korxonada inson kapitalini yuksaltirishga, istiqbolini belgilashga, kasbiy ko'nikmaga, mutasaddilik kobilyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublari bilan bog'liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60411400 – Inson resurklarini boshqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:

- davlat va nodavlat tashkilot, korxonalar va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab

MUNDARIJA

T/r		be
1.	<i>60411400 – Inson resurklarini boshqarish</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	<i>60411400 – Inson resurklarini boshqarish</i> ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	<i>60411400 – Inson resurklarini boshqarish</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1.	<i>60411400 – Inson resurklarini boshqarish</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	<i>60411400 – Inson resurklarini boshqarish</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari.....	4
1.2.3.	<i>60411400 – Inson resurklarini boshqarish</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	<i>60411400 – Inson resurklarini boshqarish</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	<i>60411400 – Inson resurklarini boshqarish</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	7
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	7
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	7
2.3.	Kasbiy kvalifikatsiyalar.....	8
3.	<i>60411400 – Inson resurklarini boshqarish</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi va fan dasturlari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar.....	8
3.1.	<i>60411400 – Inson resurklarini boshqarish</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi va fanlar dasturlariga qo'yiladigan umumiy talablar.....	8
3.2.	<i>60411400 – Inson resurklarini boshqarish</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi yuklama hajmi	8
	Bibliografik ma'lumotlar.....	9

chiqarish birlashmalari va boshqalar;

- iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarida tashkilot, korxonalar va muassasalar samaradorligi va natijadorligini oshirish jarayonlari;

- iqtisodiyotning turli tarmoq va sohalarida vaziyatli va tizimli yondoshuv tamoyillarini tatbiq etish, davlat va mahalliy boshqaruv qarorlarini amalga oshirish jarayonlari;

- tashkilot va korxonalarda zamonaviy boshqaruv tizimini tashkil etish, tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish, mehnat unumdorligini oshirish va mehnatni rag'batlantirish jarayonlari;

- firma va kompaniyalar, shuningdek, turli mulk shaklidagi korxonalarda inson resurslarini boshqarish, ilmiy tadqiqot muassasalari va mahalliy davlat organlarida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash;

60411400 – Inson resurslarini boshqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi. Bakalavriatning kasb ta'limi yo'nalishlari bundan mustasno.

1.2.3. 60411400 – Inson resurslarini boshqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- tashkiliy-boshqaruv.
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish;
- axborot-tahiliy faoliyat;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- tadbirkorlik.

1.2.4. 60411400 – Inson resurslarini boshqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60411400 – Inson resurslarini boshqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

- xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatini rejalashtirish, hisob-kitob va tahlil qilish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, huquqiy hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlar;
- rejalashtirish ishlarini tashkil etish;
- xo'jalik yurituvchi sub'ektini xo'jalik-moliyaviy va ishlab chiqarish faoliyati bo'yicha istiqbolli va joriy rejalarni (dasturlarini) ishlab chiqish;
- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni inson resurslarini boshqarish faoliyatini oqilona tashkil etishda mamlakatimiz va xorij tajribasini o'rganish;
- ishlab chiqarishni texnologik asoslarini bilish;
- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni texnika-iqtisodiy hisob-kitoblar va xo'jalik faoliyati tahlilini olib borishda axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish;
- mehnatni muhofaza qilish me'yori va qoidalariga amal qilish.
- korxonalar va tashkilotlarda ishlab chiqarish samaradorligi va mehnat unumdorligini ta'minlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar yechimlarini amaliyotga tatbiq etish;
- mehnat jamoalarini rejalashtirish va boshqarishni, boshqaruv faoliyati elementlari va ulardan boshqaruv jarayonida samarali foydalanish;
- fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;
- korxonadagi bo'lg'usi rahbar kadrlarlarda o'z ustida ishlash, yuklatilgan vazifalarning o'z vaqtida, sifatli va yuqori mas'uliyat bilan bajarish, kodimlarni samarali boshqarish kabi xususiyatlarni shakllantirishi;
- inson resurslarini boshqarish sohasining nazariy va amaliy asoslari to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lishi, inson resurslarini boshqarishning zamonaviy va samarali strategiyalarini ishlab chiqishi va amalga oshirishi;

- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;
- ishlab chiqarish jarayonlari va inson resurslaridan foydalanishni rejalashtirish, favqulodda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida inson resurslarini sifat jihatidan boshqarish;
- korxonalar va tashkilotlarda inson resurslarini boshqarishning huquqiy asoslari va uni shartnomaviy tartibga solish;
- tarmoqlar va sohalar bo'yicha ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida HR xizmati bo'limalarini tashkil etish;
- korxonalar va tashkilotlarda kadrlar siyosatini ishlab chiqish;
- korxonalar va tashkilotlarda mehnat unumdorigini oshirishda inson kapitali va inson resurslarini rejalashtirish;
- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish va mehnat resurslaridan samarali foydalanish tamoyillarini qo'llash;
- bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

- zamonaviy axborot texnologiyalardan boshqaruvda foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- ishlab chiqarish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish;
- qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma'lumot to'plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish;
- kadrlar bo'yicha tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, xodimlar faoliyatining turli ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish;
- mulkchilik shaklidan qat'i nazar korxonalar xodimlari faoliyatini boshqarishni xalqaro amaliyot mezonlari, me'yorlari va talablari asosida tahlil qilish;
- korxonalarining demografiyasi va xodimlar tarkibi ko'rsatkichlari o'zgarish tendentsiyalari va dinamikasini tahlil qilish;
- tahliliy masalalarni hal qilishda zamonaviy axborot texnologiyalari va texnik vositalardan foydalanish;
- axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda iqtisodiyotning dolzarb yo'nalishlari yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;
- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda inson resurslarini samarali boshqarish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;
- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalariga tegishli mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o'rganish;
- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalaridagi muammolar mavzulari bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;
- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
- ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;
- tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tatbiq etish.

Tadbirkorlik faoliyatida:

- yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;
- tadbirkorlik loyihalarini amalga oshirish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish;

- ijtimoiy innovatsiyalarni ishlab chiqish va ularni tadbirkorlik asosida takomillashtirish;
- biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

2. 60411400 – Inson resurslarini boshqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- ishlab chiqarishni tashkil etish, tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, resurslardan samarali foydalanish hamda korxonalar (tashkilot)ni rivojlantirish strategiyasini qo'llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- inson resurslarini boshqarishning zamonaviy usullarini joriy qilishni bilish;
- kadrlarni boshqarish tizimi va texnologiyalarini ishlab chiqish, asoslash va tatbiq etishni bilish;
- xodimlar tarkibini muvofiqlashtirish va rejalashtirish jarayonida ishtirok etish;
- ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalarining barcha bo'linmalarida menejer lavozimida faoliyat yuritishni bilish;
- kadrlarni boshqarishda avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish;
- korxonalar va tashkilotlarga xodimlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish va lavozimlarga biriktirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- inson resurslarini baholashning zamonaviy usullarini hamda inson resurslarini boshqarish tamoyillarini amaliyotda qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lish;
- tashkilotning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish rejalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishda ishtirok etish;
- korxonalar va tashkilotlarda samarali mehnat jamoasini shakllantirish;
- mehnat ko'rsatkichlarini, shu jumladan personalga xarajatlarni iqtisodiy tahlil qilish;
- inson resurslarini boshqarishning iqtisodiy samaradorligini baholashni bilish;
- ijodiy fikrlash, muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;
- korporativ axborot tizimlarini, inson resurslarini tarkibi tahlili va hisobotlarni tayyorlashni, ma'lumotlar bazasini yuritishni bilish;
- inson resurslarini strategik rejalashtirish, jamoa mehnatini samarali tashkil etish, boshqarishning zamonaviy texnologiyalarini, xodimlar jamoasiga yetakchilik qilishni bilish;
- iqtisodiy o'sish, strategik tahlil qilish, raqobatdoshlikni ta'minlashga qaratilgan tashkilot strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatiga ta'luqli qarorlarni qabul qilishda, ularni aniq vazifalarga moslashtirish orqali iqtisodiy, moliyaviy va tashkiliy-boshqaruv modellarini shakllantirishda miqdoriy va sifatli tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- biznes jarayonlarini modellashtirish, biznes yuritishning iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarini baholash, yangi bozor imkoniyatlarini aniqlash va yangi biznes modellarini shakllantirishni bilish;

- korxonani boshqarishda zamonaviy liderlikning kontseptual asoslaridan foydalanishi, korxonaning ichki va tashqi bozordagi raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan liderlik strategiyalarini rivojlantirishi;

- korxonada xodimlarning innovatsion faolligini qo'llab-quvvatlovchi muhitni shakllantirishi, xodimlarning innovatsion faolligi natijasida erishilgan ko'rsatkichlar tahlilini amalga oshirishi, tahlil asosida xodimlarni rag'batlantira olishi;

- yangi tashkilotlarni (faoliyat yo'nalishlari, mahsulotlari) yaratish va rivojlantirish uchun biznes rejalashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish.

3. 60411400 – Inson resurklarini boshqarish bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi va fan dasturlari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar

3.1. 60411400 – Inson resurklarini boshqarish bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi va fan dasturlariga qo'yiladigan umumiy talablar

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi va fanlar dasturlari ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi hamda kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarga muvofiq, talabalar majburiy va tanlov fanlarini o'zlashtirishi, amaliyotlarni o'tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko'nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta'minlovchi mazmunda ishlab chiqiladi.

O'quv rejasi kredit-modul tizimi asosida shakllantiriladi. Bunda o'quv jarayoni grafigi, haftalar kesimida o'qish vaqti, attestatsiyalar, amaliyotlar, ta'tillar, semestrlar bo'yicha o'tiladigan "Tabiiy-ilmiy va gumanitar fanlar", "Umumkasbiy fanlar", "Maxsus fanlar", mashg'ulotlar turlari, ajratilgan soatlar, kreditlar, fanlar kodi, Davlat attestatsiyasi va boshqalar ko'rsatiladi.

O'quv rejalarga kiritiladigan majburiy va tanlov fanlar turdosh oliy ta'lim muassasalar bilan hamkorlikda tayanch oliy ta'lim muassasalari tomonidan belgilanadi.

3.2. 60411400 – Inson resurklarini boshqarish bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi yuklama hajmi

Barcha turdagi auditoriya va auditoriyadan tashqari o'quv ishlarini o'z ichiga olgan o'quv yuklamasining eng yuqori hajmi haftasiga 54 soat qilib belgilanadi. Ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi) o'qish shakli uchun auditoriya mashg'ulotlarining eng yuqori hajmi haftasiga 30 soatgacha qilib belgilanishi mumkin.

O'qishning me'yoriy muddati to'rt yil bo'lgani holda o'quv jarayoni 204 hafta davom etishi zarur.

O'quv davrining umumiy hajmi quyidagicha taqsimlanishi maqsadga muvofiq:

O'quv davrlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun*	Kechki ta'lim shakli uchun*	Sirtqi shakli ta'lim uchun*
Nazariy va amaliy ta'lim*	40-65%	40-65%	40-65%
<i>Shu jumladan, mustaqil ta'lim</i>	-	15-35%	25-45%
Attestatsiya	6-15%	6-15%	6-15%
Ta'til	8-21%	8-21%	8-21%
Malakaviy amaliyot	6-25%	6-25%	6-25%
Bitiruv malakaviy ishi	2-7%	2-7%	2-7%

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 331.1

Guruh T 55

TXSK-S 04.0413.08

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalvriatning asosiy o'quv reja va fan dasturlari, profil, uqib-o'rganish natijalari, o'quv davri, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalvriatning o'quv jarayoni, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, kredit-modul tizimi, xizmat ko'rsatish, ijodiy fikrlash, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni.

Ishlab chiqaruvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQLILGAN:

Buxoro davlat universiteti

Rektor _____ **O. Xamidov**

2022 yil « 07 » _____

M.O'.



KELISHILGAN:

**Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or
texnologiyalarni tatbiq etish markazi**

Direktor _____ Sh. Yakubov

2022 yil « _____ » _____

M.O'.

**Buxoro viloyat Bandlik bosh
boshqarmasi**

Boshliq _____ **A.A. Hamroyev**

2022 yil « 04 » 07 _____

M.O'.



**Savdo sanoat palatasi Buxoro viloyat
hududiy boshqarmasi**

Boshliq _____ **G.A. Niyozov**

2022 yil « 04 » 07 _____

M.O'.




"Economics science" MChJ

Direktor _____ **G.R. Xidirova**












2022 yil « 04 » 07 _____

M.O'.



Kunduzgi ta'lim sharti shartlari	Sirtqi sharti ta'lim uchun
40-65%	40-65%
6-15%	6-15%
8-21%	8-21%
6-25%	6-25%
2-7%	2-7%

**Buxoro davlat universiteti 60411400 – Inson resurslarini boshqarish bakalavriat ta'lim yo'nalishi malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiquvchi
ISHCHI GURUH TARKIBI:**

T/r	Ishchi guruh raisi va a'zolarining FISH	Lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, ish joyi	Imzo
1.	O.X. Xamidov	BuxDU rektori	
2.	R.G'. Jumayev	BuxDU o'quv ishlari buyicha prorektor s.f.f.d., PhD, dotsent	
3.	D.Sh. Yavmutov	BuxDU "Iqtisodiyot va turizm" fakultet dekani, i.f.n., dotsent	
4.	O.Q. Xurramov	BuxDU "Iqtisodiyot va turizm" fakulteti "Servis sohasi iqtisodiyoti" kafedrasida mudiri, dotsent	
5.	B.N. Navruzzoda	BuxDU "Iqtisodiyot va turizm" fakulteti "Servis sohasi iqtisodiyoti" kafedrasida professori i.f.d., prof.	
6.	S.U. Tadjiyeva	BuxDU "Iqtisodiyot va turizm" fakulteti "Servis sohasi iqtisodiyoti" dotsenti o' i.f.n., dots.	
7.	G.R. Xidirova	BuxDU "Iqtisodiyot va turizm" fakulteti "Servis sohasi iqtisodiyoti" kafedrasida dotsenti i.f.f.d., dots.	
8.	Z.T. Jo'rayeva	BuxDU "Iqtisodiyot va turizm" fakulteti "Servis sohasi iqtisodiyoti" kafedrasida katta o'qituvchisi.	
9.	D.X. Xodjayeva	BuxDU "Iqtisodiyot va turizm" fakulteti "Servis sohasi iqtisodiyoti" kafedrasida katta o'qituvchisi.	
10.	J.R. Toxirov	BuxDU "Iqtisodiyot va turizm" fakulteti "Servis sohasi iqtisodiyoti" kafedrasida o'qituvchisi.	
11.	A.X. Shadiyev	BuxDU "Iqtisodiyot va turizm" fakulteti "Servis sohasi iqtisodiyoti" kafedrasida o'qituvchisi.	

BuxDU rektori
M. O'.

BuxDU o'quv ishlari bo'yicha prorektor

Iqtisodiyot va turizm" fakulteti dekani



O.X. Xamidov

R.G'. Jumayev

D.Sh. Yavmutov